

Nazarov Toshpo'lat Boshbek o'g'li

*Pedagogika psixologiya fakulteti Maktab menejmenti kafedrası
o'qituvchisi*

Boyqulov Javohir Asqarali o'g'li

*Pedagogika psixologiya fakulteti
Maktab menejmenti yo'nalishi II kurs
talabasi*

Akramov Alisher Murtozoqul o'g'li

*Pedagogika psixologiya fakulteti
Maktab menejmenti yo'nalishi II kurs
talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda onlayn ta'lim platformalarining o'rne, platformalarning har xil turlari, ularning ta'lim sohasiga ta'siri, afzalliklari va kamchiliklari va bugungi kunda qanday tez rivojlanayotgani muhokama qilinadi.

Аннотация: В этой статье обсуждается роль платформ онлайн-обучения сегодня, различные типы платформ, их влияние на сектор образования, их преимущества и недостатки, а также то, как они быстро развиваются сегодня.

Abstract: This article discusses the role of online learning platforms today, the different types of platforms, their impact on the education sector, their advantages and disadvantages, and how they are rapidly evolving today.

Kalit so'zlar: Onlayn ta'lim platformasi, onlayn ta'lim, o'quv jarayoni, onlayn ta'lim vositalari, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, Moodle platformasi, onlayn ta'limni shakllantirish, o'qitish texnologiyasi, onlayn ta'lim metodikasi.

Ключевые слова: Онлайн-образовательная платформа, образовательный процесс, онлайн-образовательные инструменты, информационно-коммуникационные технологии, платформа Moodle, формирование онлайн-образовательных платформ, технология обучения, онлайн-методика обучения.

Keywords: online educational platform, educational process, online educational tools, information and communication technologies, Moodle platform, formation of online educational platforms, teaching technology, online educational methodology.

Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va o'zgarimoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o'zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea hodisalar sodir bo'lmoqda. Har bir kunimiz kuchli yangilik oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni har joyda, uyda, ishxona va hattoki ta'tilda ham ta'qib etadi. Inson axborot ta'siridan holi normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o'rganish axborotlarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham

ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan axborotlarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi. Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limotni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Vaholanki, ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Yani onlayn ta'lim platformalari yaratilishda davom etmoqda. Onlayn ta'lim platformalari o'quv modullari kontentlarini yaratish, saqlash va ularni ta'lim oluvchilarga taqdim etish, shuningdek, ta'lim oluvchilarni ro'yxatga olish va ularga o'quv modullarini onlayn tarzda o'zlashtirish imkoniyatini beruvchi maxsus elektron dasturiy tizimlar hisoblanadi. Ushbu platformalar yuqori texnologiyalar zamonida taqdim qilinayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanish va vaqtni tejash, ta'lim oluvchi uchun qulay vaqt va maqbul sur'atlarda ta'lim olish imkoniyatini beradi. Platformalar qulay interfeysga ega, barcha yo'nalishlar bo'yicha malakali mutaxassislar tomonidan yaratiladi. ta'limda yangi axborot texnologiyalarini ishlatish asosida ta'limning turli ko'rinishlari, shakllari va usullarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Shularni hisobga olgan holda onlayn ta'lim platforma ta'lim jarayonini tashkil etish aniq tayyorgarlikni talab etadi, ya'ni zaruriy ta'lim darajasiga va moddiy-texnik ta'minotga ega bo'lishni talab etadi. Onlayn ta'lim platformalridan biri bu Moodle platformasi hisoblanadi. Moodle platformasining asosiga L.S.Vigotskiy, Djon Dyui, Jan Piaje, Ernst fon Glazerfeld kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar qo'yilgan. Bu tamoyillar asosida Martin Dujiamas (Martin Dougiamas) (Moodle ta'limni boshqarish tizimini yaratish bo'yicha loyiha muallifi va boshlig'i) umumiy "ijtimoiy konstruktivizm" (inson faoliyatida ijtimoiy voqelikning ijtimoiy-psixologik qurilishi jarayonlarini o'rganadigan sotsiologik va psixologik nazariya) nomi ostida tizim asosiga yotqizilgan besh tamoyilni shakllantirdi¹³. Bu tamoyillarni hisobga olib, onlayn ta'lim platformalari ta'lim sub'ektlari, ular orasidagi aloqa tizimlari va ta'lim jarayoni amalga oshadigan soha kabi asosiy komponentalarini ko'rib chiqish mumkin. Onlayn ta'lim platformalari asosiy komponent sifatida axborotni maxsus axborot va ta'lim muhitida (virtual) uzatishni nazarda tutadi. Sohaning o'ziga xosligi o'quv faoliyatining barcha tarkibiy qismlariga tubdan ta'sir qiladi: o'quv motivatsiyasi, o'quv holati, talabalar bilimni nazorat qilish va baholash. O'quv faoliyatining barcha tarkibiy qismlari birinchi navbatda Moodle platformasi orqali o'qituvchi-talaba munosabatlarining ko'rinishi hisoblanadi. Moodle platformasi resurslarni loyihalash, yaratish va boshqarishga ruxsat beradi. Platforma interfeysi dasturlashtirish va ma'lumotlar bazasini boshqarish sohasi bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lmagan o'qituvchilar ishlashi uchun ham qulay imkoniyatlarni taqdim etadi va tushunarli tarzda ishlab chiqilgan. O'qituvchi mustaqil holda tizimda masofali kurs yaratishi va uni boshqarishi mumkin. Bundan tashqari, pedagogik jarayonda o'qituvchilarga qulaylik yaratish maqsadida kursning resurslari va elementlarini boshqarish uchun ma'lumotlarni kiritishga ko'maklashuvchi WYSIWYG HTML-muharriri ishlatiladi. Bu muharrir orqali matn, jadval, sxema, rasm, audio, video, flesh ma'lumotlarni masofali kursga tez va oson joylashtirish mumkin. Moodle platformasida administrator

1. ¹³https://www.researchgate.net/publication/360219971_ELEKTRON_TA'LIMDA_MOODLE_PLATFORMA_SINING_PEDAGOGIK_TAMOYILLARI



tomonidan ro'yxatdan o'tganidan keyin talabalar masofali o'quv kurslari o'qituvchilari tomonidan o'z kurslariga ro'yxatga olinishlari kerak. Shundan keyin talabalar o'quv va uslubiy materiallar bilan to'ldirilgan masofali kurslarga kirish huquqiga ega bo'lishadi. Moodle platformasi talabaga o'qituvchi rahbarligida mustaqil ta'lim olish imkonini beradigan vositalarga egadir. Aksariyat insonlar onlayn ta'lim hech qachon an'anaviy ta'limning o'rnini bosa olmaydi, deb o'ylaydi. Lekin onlayn ta'lim an'anaviy ta'limdan-da samarali bo'la olishi uchun ham onlayn ta'lim platformalari yaratilishda davom etmoqda. Onlayn ta'lim platformalarining hozirda u qadar rivojlanmaganligi sababli, unga bepisand qarash, mashinalar ishlab chiqarilayotgan vaqtda otlardan foydalanishni afzal ko'rishga tengdir¹⁴. Onlayn ta'lim platformalarining asosiy afzalligi: Ta'lim tizimi raqamli ko'rinishda bo'lsa, o'rganuvchilarning ko'rsatkichlarini kuzatish va tahlil qilish osonlashadi. Xo'sh, tajribali o'qituvchining dars xonasida vazifasi nima? Tajribali o'qituvchi dars xonasida quyidagi ishlarga ulgurishi kerak:

- Qiyin mavzularni tushuntirishda tushunarli materiallardan foydalanish;
- Har bir o'rganuvchining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini qisqa muddatda o'rganib chiqish;
- Olingan ma'lumotlardan kelib chiqib tezlik bilan yangi metodlarni qo'llash.

Shu kabilar an'anaviy ta'limda sodir bo'ladi. Ammo onlayn ta'lim platformalari orqali esa bu kabi vazifalarni yetkazib berish osonroqdir bunda o'qituvchida ham charchoq holatlari sezilmaydi. Albatta tanganing ikki tomoni bor bo'lganigek elektron platformalarning ham salbiy tomonlari mavjud ulardan biri esa o'quvchi yoki talabalarda chalg'ish holatlar kuzatiladi. O'zbekiston Respublikasida ham Milliy ta'lim tizimining xalqaro hamjamiyatga integrasiyalashuvi yo'lidagi sa'y-harakatlar bugungi jadal islohotlarda o'z ifodasini topmoqda. Xususan, oliy ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va boshqa bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilingani bunga yorqin misoldir.

Prezidentimizning 2020-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni soha rivojida muhim qadam bo'ldi. "Elektron universitet" (E-University) tizimini joriy etgan holda, ochiq, shaffof, sub'yektivlik va suiiste'molchilikdan xoli ta'lim muhitini yaratish kabi ustuvor vazifalar ijrosi Toshkent davlat yuridik universiteti faoliyatida ham o'z aksini topmoqda¹⁵. Hozirgi kunda universitet professor-o'qituvchilari masofadan turib onlayn ta'lim platformalardan foydalangan holda onlayn va oflayn tarzda videodars, audio dars, elektron kitob va o'quv materiallari asosida ta'lim bermoqda. 2020/2021-o'quv yilidan boshlab joriy etilgan kredit-modul tizimi (ECTS Yevropa kredit tizimi)ning nafaqat talabalar, balki professor-o'qituvchilar faoliyati, o'z vazifasiga ko'rsatayotgan ijobiy ta'sirini

2. ¹⁴ <https://abt.uz/blog/onlayn-talimning-afzalliklari>

3. ¹⁵ <http://yuz.uz/uz/news/elektron-talim-imkoniyatlari>

his qilmaslik mumkin emas. Bu tizim mashg'ulotlar sifati va samarasini keskin oshirish barobarida talabalar bilimni baholashda ham ob'yektivlik va shaffoflik ta'minlanishining kafolati bo'lyapti. Nazorat turlari — sinov va imtihonlarni olish va baholash tartibi maxsus elektron tizim orqali amalga oshirilishi, bunda talaba ism-sharifi yashirilgan holda tekshirishga berilishi, bu jarayon elektron tizimda shaffof namoyon bo'lib, o'qituvchi tomonidan qo'yilgan baho hamda ish yuzasidan sharh talabaga darhol ko'rinishi har qanday noxolislikning oldini oladi. Universitetda o'quv va boshqaruv tizimini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quv jarayoni uchun qator elektron tizimlar joriy qilingan. Talabalar uchun har qanday masala yuzasidan elektron murojaat qilish imkoniyati yaratilib, "yagona darcha" tamoyili asosida faoliyat yurituvchi Talabalarga xizmat ko'rsatish markazi tashkil etildi. Bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertasiyalari hamda ilmiy rahbarlarni tanlash elektron tizimi, to'lov shartnomasini elektron ravishda olish hamda to'lov bo'yicha qarzdorlikni nazorat qilib borish mexanizmi ishga tushirildi. Universitetning onlayn ta'lim platformasi dunyo bo'yicha e'tirof etilgan Moodle (ob'yektga yo'naltirilgan dinamik ta'lim muhiti) tizimida yo'lga qo'yilib, yanada takomillashtirildi. Jumladan, ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazish uchun videochat (Big Blue Button) va Zoom dasturiy vositasi, nazorat ishlarini topshirish hamda ularni antiplagiat tizimdan o'tkazish mexanizmlari integrasiya qilindi. Ta'lim platformasiga 21 mingdan ortiq elektron kontent (video ma'ruza, audio,

elektron adabiyotlar, ma'ruza matnlari, test va topshiriqlar, qo'shimcha amaliyot materiallari) joylashtirildi. Bundan tashqari, universitet elektron kutubxonasi ham tashkil etilib, unda 10 mingdan ziyod manba joylashtirildi, huquqshunoslar uchun mo'ljallangan WestLaw, LexisNexis va JSTOR xalqaro ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyati yaratildi. Universitet tomonidan yangi avlod darsliklarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Yangi ishlab chiqilgan talablar, xorijiy adabiyotlar namunalari asosida hamda xorijiy professorlarni jalb etgan holda, darsliklar tayyorlash ishlari, shuningdek, Oksford va Kembrij kabi xorijiy nashriyotlar bilan shartnomalar tuzilib, ularning eng mashhur huquqiy adabiyotlarini o'zbek tiliga tarjima qilish va nashr etish yo'lga qo'yildi. Buning natijasida har yili 20 dan ortiq darslik va o'quv qo'llanmalar nashr etib borilmoqda. bundan ko'rishimiz mumkinki onlayn ta'lim platformalari ta'lim sohasiga juda katta hissa qo'shmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.researchgate.net/publication/360219971> ELEKTRON TA'LIMD A MOODLE PLATFORMASINING PEDAGOGIK TAMOYILLARI
2. <https://abt.uz/blog/onlayn-talimning-afzalliklari>
3. <http://yuz.uz/uz/news/elektron-talim-imkoniyatlari>